

## **PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURI VA UNING AHAMIYATI**

**Tursunova Gavhar Ibragimovna**

Surxondaryo viloyati Denov tumani 79-umumi o'rta ta'lim maktabi

"Boshlang'ich sinf" o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Hozirgi tezkor davrga kelib har qanday sohadagi globallashuv jarayoni jamiyat hayotining muhim omillaridan biri bo'lmoqda va o'z navbatida, fan-texnikaning rivojlanishiga, iqtisodiyotning yuqori darajada o'sishiga, shuningdek, ta'lim sohasidagi integratsiya jarayoning yanada chuqurlashishiga olib kelmoqda. Ta'limning sifati, kadrlar kompetentligi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omili sifatida raqobatbardosh malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifasi globallashuv davrining muhim xususiyatlariga aylanib ulgurgan. Rivojlangan mamlakatlar yoshlari ta'limining jamiyat taraqqiyoti va inson rivojlanishidagi o'rnni muhim deb hisoblaydi. Shu bois ham ular ta'lim sifatiga alohida e'tibor qaratadi. Ayni davrda yurtimizda ham ta'lim sohasidagi sifat tushunchasi ancha ommalashib ulgurdi. Kelajak yosh avlodning intelektual salohiyatini oshirish, keng dunyoqarashini shakllantirish nafaqat muayyan bir mamlakat uchun, balki, xalqaro hamjamiyat uchun ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun ta'lim sifati, ta'lim sifatini baholash kabi masalalar bilan ko'pgina xalqaro tashkilotlar ma'lum bir talabgor davlatlarda ta'lim sohasini baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, PIAAC, ICCS, SITES, IALS, ALL kabi xalqaro baholash dasturlarini amaliyotga tatbiq etishgan. Jumladan, PISA va PIRLS tadqiqotlarida O'zbekistonning ham ishtirok etishi to'g'risida kelishuv imzolanganligi O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga zamin yaratadi va yosh avlodning intelektual faolligini oshirish, ularning ta'limdagi kompetentligini va kreativligining rivojlanishiga hissa qo'shadi. Bugungi kunda bu kabi baholash dasturlarini ta'lim jaraoyoniga integratsiya etish juda zarurdir. Quyida maqolani o'qish davomida bu baholash dasturlaridan biri – PIRLS haqida ko'proq bilib olishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** PIRLS xalqaro baholash dasturi, uning tashkil etilish jarayoni, baholash mezonlari, talablari, dunyo mamlakatlari reytingi, dasturning muhimligi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) — bu turli mamlakatlarda 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini xalqaro baholash tizimidir. Pirls xalqaro tadqiqotlari an'anaviy tarzda 2001, 2006, 2011, 2016-yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021-yil tadqiqotning beshinchi davriyiliги hisoblanadi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini xalqaro darajada baholaydi. Mazkur dastur 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro markazi, IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tashkilotining Hamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi. O'quvchilarning shu vaqtgacha erishgan yutuqlarini baholash, albatta barcha o'quvchilardan emas, balki tanlab olingan iqtidorli o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi. Misol uchun, tadqiqot davomida ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va tahlil qilish maqsadida o'quvchilar so'rovnomasi o'tkazish, uning natijalari orqali ishtirokchi haqida ma'lumotlar, oiladagi ta'limiy resurslar, o'quvchining muktabga, o'qituvchiga, o'quv faniga munosabati, o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabat, o'quv fanlari bo'yicha o'zini baholash, sinfdan tashqari mashg'ulotlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi.

O'qituvchilar so'rovnomasi esa o'qituvchilar haqidagi ma'lumotlar, muktabning jihozlanish, xavfsizlik, muktab muhiti, o'qitish usuli, malaka oshirish masalalarini o'z ichiga oladi.

Qo'shimcha sifatida ota-onalar so'rovnomasida ota-onalar haqidagi ma'lumotlar, oiladagi ta'limiy resurslar, farzandini muktabga tayyorlash, muktabga qabul qilinishidan avvalgi bilim-ko'nikmalari, ota-onalarning muktabga va o'qishga munosabatiga doir savollar aks etadi va javoblar o'rganiladi.

Maktab ma'muriyati so'rovnomasni orqali esa maktab sig'imi va imkoniyatlari, joylashuvi, jihozlanishi, ta'limiyl resurslari bazasi, maktabda o'quv jarayonining tashkil etilishi, maktab muhiti chuqr o'rganilib, tahlil etiladi. PIRLS xalqaro tadqiqoti - boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligini aniqlaydigan, xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish - o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan bir qator tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. Hozirgi vaqtida PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihibar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarni namoyon qilishga qaratilmoqda. PIRLS tadqiqotida ishlataladigan matnlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan:

Matn uzunligi: 1000ta so'zgacha, ammo, o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta so'z belgilangan.

Mavzu: 1) Adabiy matnlar asosiy mavzuga ega bo'lib, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlashtiriladi. 2) Axborotdan iborat bo'lgan matnlar o'quv materiallaridan olinmagan mavzuni yoritib berishi kerak.

Til: Qismlar 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadi, shuning uchun tarjima qulay bo'lishi muhimdir. Metafora yoki epitet kabi aniq ifodali tasvirlash so'zlar tanlanadi. Hech qanday so'zlashuvga oid leksika yoki jargon ishlatilmaydi. Haddan ziyod texnik vositalar ishlatilmaydi.

Mazmuni: Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlanish tadqiqotning asosiy talablaridandir. Matn shu yoshdagi maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi hamda yaxshi yozilgan va unchalik tanish bo'limgan mavzu haqida bo'lishi lozim.

Bog'liklik va ketma-ketlik: Syujetning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish muhimdir. Matnda oddiy va murakkab gaplarning bir xil ishlatalishini ta'minlash, agar dialog ustunlik qilsa, ma'lumotni birlashtirib, murakkab gaplarni qo'shish kerak bo'ladi. Axborot matnda esa matnning strukturasi va ma'lumotning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi visual elementlar bilan bog'liqligini kuzatish shartdir.

O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, unda ishtiropi mobaynida matndan yangi ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi. Bu dastur asosida olib borilyotgan ushbu jarayonlar bevosita fanlar bilan va fanlararo bog'liqlik tarzda olib borilishi lozimdir.

Jumladan, PIRLS - boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga qaratiladi, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish". O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi:

\*diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;

\*to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish;

\*kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish;

\*g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi:

Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – o'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi.

Yuqori daraja (550 ball) – o'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi.

O'rta daraja (475 ball) – o'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi.

Quyi daraja (400 ball) – o'quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajratib oladi.

Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Chestnut Hill (Maccachucetc, AQSH) Boston kollejiga yuklatilgan. Tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash esa Germaniya (Gamburg) ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi.

PIRLS tadqiqotlarining 4 martalik natijalari:

PIRLS 2001: 1) Shvetsiya - 561 ball 2) Niderlandiya - 554 ball 3) Angliya - 553 ball

PIRLS 2006: 1) Rossiya - 565 2) Gonkong - 564 3) Kanada - 560

PIRLS 2011: 1) Gonkong - 571 2) Rossiya - 568 3) Finlandiya - 568

PIRLS 2016: 1) Rossiya - 581 2) Singapur - 576 3) Gonkong - 569

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, 2021-yilda o'tkazilgan PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizdagi 4-sinf o'quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etdi.

PIRLS tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, Prezidentimiz tomonidan yurtimizda ushbu tadqiqotlarga tayyorgarlik bo'yicha bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "PISA" (The Programme for International Student Assessment) O'quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning 2021-yilda birinchi 70 talikka, 2025-yilda 60 talikka va 2030-yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kiritish ko'zda tutilgan.

Zero, ayni davr ta'limi va global taraqqiyot bilimlar universalligini ham talab qiladi. Shu sababli ham, mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlari sifat darajasini xalqaro talablar va standartlarga muvofiq tubdan yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishimiz muhim ahamiyatga egadir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.
3. "Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish - inson kapitalini rivojlantirish omilidir" mavzusidagi xalqaro vebinar. Sidorova Galina Aleksandrovna, Rossiya ta'lim akademiyasining ta'limni rivojlantirish strategiyasi instituti, ta'lim sifatini baholash markazining katta ilmiy xodimi, pedagogika fanlari nomzodi.
4. G'ulomova A., Ne'matov O'. Ona tili t'lim mazmuni. T.: O'qituvchi, 1995...-B.38
5. Ro'zimuhhammad B. Buyuk shaxslar silsilasi "Ma'rifat". – 2002.- №26. -B.6.
6. A.A.Xaliquov "PIRLS dasturining mazmun-mohiyati"- pedagogika fanlar doktori.
7. <http://www.Google.com>
8. <http://www.oecd.org/pisa/>
9. [www.centeroko.ru](http://www.centeroko.ru)
10. New.tdpu.uz
11. cyberleninka.ru
12. Fayllar.org
13. [www.xabar.uz](http://www.xabar.uz)
14. Uzreport.news